taniya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Italiya va Isroil kabi davlatlarda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va uni innovatsion rivojlantirishda davlatning faol ishtirokiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Rivojlangan davlatlarda to‘plangan tajribadan ko‘rish mumkinki, kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosati iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lgan kichik tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bunda innovatsion va ijtimoiy javobgarlikni bo‘yniga oladigan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratiladi. Bunga sabab aynan shunday korxonalar yuqori malakali inson kapitalini shakllantiruvchi va ilmiy texnik tarqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion korxonalar bozorda innovatsion mahsulotni sotib olish bilan bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tranzaksiya xarajatlari xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan shunga o‘xshash mahsulotni yaratish bo‘yicha ichki xarajatlardan kam bo‘lganda paydo bo‘ladi [1].

AQShda so‘nggi o‘n yillikda barcha innovatsion ishlanmalarning 55 %i va yangi ish o‘rinlarining 75 % i aynan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan [2].

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kichik tadbirkorlikning rivojlanishi muhimligi ko‘plab tadqiqotlar natijasida ko‘rsatilgan [3, 4, 5]. Shu sababli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat dasturlarida kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Kichik tadbikorlik rivojlangan mamlakatlardagi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari odatda quyidagilarni qamrab oladi: imtiyozli kredit ajratish; soliq to‘lovlari miqdorini kamaytirish; binolarni ijaraga berishda imtiyozlar; kichik tadbirkorlik uchun subventsiyalar; bank stavkasining qisman kompensatsiyasi; byudjet mablag‘lari hisobidan tadbirkorlar malakasini oshirish; ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish [6].

Shu bilan birga har bir mamlakat o‘z iqtisodiy shart-sharoitidan hamda bozor infratuzilmasining rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini shakllantirgan. Kichik tadbikorlik yuqori rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega mamlakatlarda (EI, Yaponiya, AQSh, Singapur va boshq) davlatning bu sohadagi faoliyat qamrovi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqori [7, 8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi xorijiy tajribani nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish va baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida taqqoslash, tahlil, sintez, induktsiya, deduktsiya, statistik usul kabi empirik, eksperimental-nazariy va o‘ziga xos ilmiy usullar qo‘llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat ishbilarmonlik muhitini shakllantirishda tizimni tartibga soluvchi rolni bajarib, tadbirkorlik faoliyatining eng istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishga ko‘maklashishi, tadbirkorlik subyektlarini o‘zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashtirishga yordam beradigan tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuini ta’minlashi kerak.

AQShda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat strategiyasi “Kichik tadbirkorlik” to‘g‘risidagi Qonunda o‘z aksini topgan bo‘lib, unda barcha davlat tashkilotlari hamkorlikda kichik tadbirkorlik sektorini faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vazifalar belgilangan (1-chizma).

**AQSHda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari**

- Ekspot imkoniyatlarini oshirish, texnologiya transferi bo‘yicha yordam berish, import bilan samarali raqobat qilish qobiliyatini oshirish
- Qayta qurish, uskunalar sotib olish va raqobatbardosh mahsulotlar xamda xizmatlar ishlab chiqarish uchun uzoq muddatli kreditlardan samarali foydalanishni yaxshilash
- Barcha savdo muzokaralarida kichik tadbirkorlik manfaatlarini hisobga olgan holda yondashish
- Kichik tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan turli davlat, mintaqaviy va xususiy dasturlar haqida ma’lumot bilan keng jamoatchilikni xabardor qilish

1-chizma: AQShda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari

Kichik tadbirkorlikning AQSh YaIMdagi ulushi 52% ni, umumiy bandlikdagi ulushi 50,1 % ni (70 mln.ga yaqin kishi), barcha korxonalardagi ulushi 97,6 % ni (23 mln.ga yaqin korxona) tashkil etadi [9].

AQShda kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 40 ga yaqin davlat dasturlari amal qiladi. Bular ta’lim va maslahat berishga yo‘naltirilgan texnik dasturlar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari, shartnomalarni joylashtirishga yordam berish, innovatsion dasturlardir.

Kichik va o‘rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini samarali amalga oshirish rivojlangan infratuzilmasiz imkonsizdir. AQShning barcha shtatlari va yirik shaharlarida Kichik tadbirkorlik ma’muriyatining hududiy bo‘linmalari faoliyat yuritadi. Yirik shaharlar, sanoat va ilmiy markazlarda texnopark va biznes inkubatorlar tashkil etilgan. Kichik va o‘rta tadbirkorlik bo‘yicha maslahat markazlari turli faoliyat turlari bo‘yicha o‘n mingdan ziyod maslahatchilarni birlashtiradi, shuningdek, axborot va kommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatuvchi informatsion markazlar tashkil etilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari “yagona darcha” orqali o‘qitish va maslahat berish, texnik yordam ko‘rsatish va axborot taqdim etish hamda xizmatlar ko‘rsatishni amalga oshiradi. Yetti mingdan ortiq vakolatli xususiy banklar va investitsiya kompaniyalari kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari ishtirokchilari hisoblanadi.

AQShda 1982-yilda “Kichik korxonalar faoliyatini ilmiy texnik rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 1986-yilda “Texnologiyalarni uzatish to‘g‘risida”gi Qonunlari qabul qilindi. Kichik tadbirkorlik subyektlari samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida AQShda bir qator ilmiy texnik dasturlar ishlab chiqildi. “Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi” (The Small Business Innovation Innovation Research- SBIR) va “Kichik biznes texnologiyalari transferi dasturi” (The Small Business Technology Transfer Program – STTR) eng yirik dasturlardan hisoblanadi. Ushbu dasturlar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bosh idorasi - Kichik tadbirkorlik ma’muriyati tomonidan nazorat qilinadi. Ularning birinchisi yirik davlat idoralariga aloqador ustuvor ilmiy texnik muammolarni hal etishda kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion ishlanmalarini jalb etishga yo‘naltirilgan (Mudofaa, Savdo, Energetika, Transport, Sog‘liqni Saqlash va aholiga xizmat ko‘rsatish Vazirliklari va b.). Ushbu dasturning umumiy yillik byudjeti 1 mlrd. dollardan ortiqni tashkil etadi va u orqali yiliga minglab innovatsion loyihalar amalga oshiriladi [10]. Bunda har bir idora kichik tadbirkorlarga innovatsiya sohasidagi xarajatlarini qoplash uchun 100 mln. dollargacha mablag‘ ajratadi. Dastur doirasidagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan taklif etilayotgan ishlanmalarning istiqbollarini baholash yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Subsidiyalarni olgandan keyin kichik tadbirkorlik subyektlari o‘z loyihalarini amalga oshirishga kirishadilar. Ajratilgan byudjet mablag‘lari deyarli qaytarilmaydi, faqatgina bilvosita soliq ko‘rinishida qaytariladi. Qayd etilgan dastur AQShda kichik tadbirkorlik subyektlarini boshlang‘ich mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida joriy etilgan va bu mamlakatda kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion ishlanmalarini rag‘batlantirish bo‘yicha birinchi loyiha hisoblanadi.

Texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha muhim vazifalar “Kichik biznes texnologiyalari transferi dasturi” (STTR) doirasida amalga oshiriladi, bu kichik tadbirkorlik korxonalarini notijorat tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilishga undaydi. Ushbu dastur kichik tadbirkorlik subyektlariga yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan vaqtinchalik birlashmalar va qo‘shma korxonalarni tashkil etish sohasida texnik va moliyaviy yordam olishlariga keng imkon yaratadi. Dastur doirasidagi tadqiqotlarning asosiy buyurtmachisi yalpi yillik byudjeti 1 mlrd. dollar bo‘lgan AQShning asosiy Vazirliklari va Idoralari hisoblanadi. Texnologiyalar Departamenti STTR dasturini amalga oshirishning barcha bosqichlarida boshqarishni amalga oshiradi. Bu dastur bevosita byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi, ushbu mablag‘lar esa mamlakatning kelgusidagi iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi ilmiy texnik ishlanmalarni joriy qilish uchun yo‘naltiriladi. Asosiy e’tibor nazariy ishlanmalarning amaliy ahamiyatiga qaratiladi, ular bozor tomonidan talab qilinadigan yuqori texnologiyalar va yangi mahsulotlarga asoslanadi.

Kichik tadbirkorlik sohasidagi innovatsion ishlanmalar samaradorligini baholash “Kichik tadbirkorlikning innovatsion natijaviyligi to‘g‘risidagi tadqiqotlar” dasturi doirasida amalga oshiriladi, uni muvofiqlashtirish AMB Texnologiyalar Departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Dastur bo‘yicha hisobotlar kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar va ularning natijaviyligini davriy baholashga asoslanadi (SBIR va STTR dasturlari bundan mustasno). Bundan tashqari, ushbu dastur doirasida innovatsiya yo‘nalishida yillik byudjeti 20 mln. doll.dan ortiqroqni tashkil etuvchi 18 ta federal agentliklar kichik tadbirkorlik sohasidagi ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlarga mo‘ljallangan turli xil shartnomalarni joylashtirish uchun auktsionlarni amalga oshiradi. AMB agentligi dastur doirasida innovatsiyalarni turli ko‘rinishlarini samarali amalga oshirayotgan innovatsion kichik tadbirkorlik subyektlari reestrini shakllantiradi. Ushbu reestr xususiy va davlat idoralarining innovatsiyalar bo‘yicha buyurtmasini amalga oshirishda eng istiqbolli kichik tadbirkorlik subyektlarini tanlash jarayonini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi [11].

Germaniyaning tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi davlat siyosati mamlakat iqtisodiyotini turg‘unlikdan tez chiqib, kichik va o‘rta tadbirkorlik sohasini mustahkamlash, uning raqobatbardoshligini oshirish va uning yanada o‘sishini ta’minlashga qaratilgan. Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari etib, yuqori texnologiyalarni o‘zlashtirish, yangi korxonalarni tashkil etish va o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashni rag‘batlantirish (ayniqsa, sobiq GDR davlatlarida), o‘qitish va malakasini oshirish, ekport imkoniyatlarini rivoj-

lantirish belgilangan. Teng ulushlarda moliyaviy qo'llab-quvvatlash federal darajada kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus davlat moliya institutlari kafolatlari asosida ajratiladi. Ushbu maqsadlarda Yevropa Ittifoqining katta mablag'lari va xususiy investitsiyalar jalb etiladi. Ushbu siyosatni amalga oshirish bo'yicha barcha davlat va sheriklik tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish Federal iqtisodiyot va Mehnat Vazirligiga yuklatiladi, unda kichik va o'rta biznes, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish sohasi, yakka tartibdagi mehnat va kasb-hunar ta'limi bilan bog'liq barcha tezkor masalalar bilan bosh direktorat shug'ullanadi.

Germaniyada kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davlat strategiyasi muhim maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan (2-chizma). Germaniya tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun rivojlangan infratuzilmaga ega. Texnik, moliyaviy va investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash, boshlang'ich korxonalarni qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlari mavjud. Germaniyada innovatsion va ijtimoiy kichik tadbirkorlikni kreditlash ularni qo'llab-quvvatlashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Kichik firmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalarini muvofiqlashtiruvchi asosiy idora - Kichik va o'rta tadbirkorlik direktorati hisoblanadi.

**Germaniyada kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davlat strategiyasi maqsadlari**

- "O'rta sinf"lar sonining rivojlanishi va o'sishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash
- Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bo'yicha o'qitish va amaliy tayyorlash uchun oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'quv bazasini shakllantirish
- Yangi tashkil etilgan korxonalarda ularning barqaror rivojlanishi va o'sishini ta'minlash uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatishni kuchaytirish
- Byurokratik to'siqlarni kamaytirish, resurslar va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni osonlashtirish
- Innovatsiya sohasida kichik va o'rta tadbirkorlik sohasini bevosita qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash orqali ishbilarmonlik va innovatsion salohiyatni rag'batlantirish

2-chizma: Germaniyada kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davlat strategiyasi maqsadlari

Kichik tadbirkorlik subyektlari kredit resurslarini olishda o'zlarining moliyaviy, texnik va kadrlar holati to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak, bu investitsiya xavfini sezilarli kamaytirish imkonini beradi. Germaniyada kichik tadbirkorlikni imtiyozli kreditlash yo'nalishlari amalga oshiriladi (3-rasm).

**Germaniyada kichik va o'rta tadbirkorlikni imtiyozli kreditlash yo'nalishlari**

- innovatsion kichik tadbirkorlarga kredit resurslarini taqdim etish
- mamlakatning rivojlanishda orqada bo'lgan hududlarini rivojlantirishda ishtirok etayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit berish
- bevosita yoki bilvosita uy-joy qurilishi bilan band bo'lgan kichik firmalarni kreditlash
- kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror ekologik muhitni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan loyihalarini kreditlash
- tubdan modernizatsiya qilishga muxtoj bo'lgan tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit mablag'larini taqdim

3-rasm: Germaniyada kichik va o'rta tadbirkorlikni imtiyozli kreditlash yo'nalishlari

Yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash Germaniya kompensatsion banki orqali amalga oshiriladi. Ushbu bank kredit resurslarini quyidagi nivestitsion maqsadlarda taqdim etadi: investitsiya payini sotib olish, ushbu pay korxona faoliyatini nazorat qilish, korxonani ochish yoki sotib olish, dastlabki zaxiralar, ishlab chiqarish binolari va ofis uskunalarini shakllantirish huquqini beradi. Hududiy dasturlarni amalga oshirish asosida mahalliy ahamiyatga ega tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit resurslari taqdim etiladi.

Kichik tadbirkorlikni so‘nggi ikki yil davomida koronavirus pandemiyasi sababli davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zaruriyati yanada ahamiyatli bo‘ldi. Hususan, Germaniyada barcha kichik tadbirkorlik subyektlarga har oyda 50 ming Yevrogacha miqdorida yordam mablag‘lari ajratildi. Shuningdek, mazkur tadbirkorlik subyektlariga davlat kafillikni asosida 500 ming Yevrogacha bo‘lgan bank kreditlari ajratilishi yengillashtirildi. Bundan tashqari, kichik va o‘rta biznes subyektlariga 600 mlrd. yevro miqdorida (YaIMning 14,8 foiziga teng) moliyaviy mablag‘lar ajratildi [12].

Germaniyadan farqli ravishda Xitoyda kichik tadbirkorlik subyektlari zaifligi va nobarqaror faoliyat yuritayotganligi aniqlansa, davlat kichik tadbirkorlik korxonasini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi turli ko‘rinishdagi bevosita chora-tadbirlarni amalga oshiradi [13].

Xitoyda markaziy xukumat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlar mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan ham amalga oshiriladi. Masalan, Xarvin shahridagi yangi va yuqori texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari qo‘shimcha imtiyozlardan foydalanishadi (4-chizma) [14].

**Xitoyda yangi va yuqori texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga beriladigan qo‘shimcha imtiyozlar**

- Kichik firmalar akkreditatsiya qilingan kundan boshlab, uch yillik faoliyat uchun daromad solig‘i to‘lashdan butunlay ozod etiladi, ikkinchi uch yil uchun tarif bo‘yicha 7,5 % (soliqning 50 % i) to‘lanadi va nihoyat, 7-yildan boshlab tarif bo‘yicha to‘liq 15 % daromad solig‘i to‘lab boshlaydilar
- Eksport uchun ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati yillik yalpi mahsulotning 50 % idan yuqori bo‘lgan kichik tadbirkorlik subyektlari 10% lik tarif bo‘yicha daromad solig‘i to‘laydilar
- Mahalliy sanoatda ishlab chiqarilmagan, ilmiy tadqiqot va yuqori texnologiyani o‘zlashtirish maqsadida import qilingan asbob-uskunalar bojxona import bojidan to‘liq ozod etiladi
- Kapital qurilishni amalga oshirish uchun kichik tadbirkorlik subyektlari ko‘pgina imtiyozli shart-sharoitlardan foydalanishi mumkin

4-chizma: Xitoyda yangi va yuqori texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlariga beriladigan qo‘shimcha imtiyozlar

Xitoyda innovatsion kichik tadbirkorlik subyektlarini davlat va jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud bo‘lib, kichik tadbirkorlik faoliyatining dastlabki bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tadbirkorlik xatarini minimallashtirishni nazarda tutadi. Shuningdek, imtiyozli soliqqa tortishni hisobga olgan holda, kichik tadbirkorlik sohasida venchur kapitalini imtiyozli shartlarda jalb etishni rag‘batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalarida amalga oshirilgan ilmiy-texnik ishlanmalari natijalarini taqdim etish orqali kichik tadbirkorlik subyektlari bepul davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Xitoy Fan va texnologiya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yuqori texnologiyaga asoslangan sohalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dastur doirasida 1997–2001-yildan boshlab amaliy va fundamental tadqiqotlar uchun har yili 13 mlrd. dollar atrofida mablag‘ ajratildi. Ushbu mablag‘lar elektronika va informatsion texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalar fundamental tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uchun akademik institutlar va kichik innovatsion kompaniyalarga yordam tariqasida yo‘naltirildi.

Yaponiyada kichik va o‘rta biznesga oid davlat siyosati 1990-yilgi inqirozdan keyin qayta ko‘rib chiqildi, hamda “Kichik va o‘rta tadbirkorlik” to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirish kiritilib, korxona hajmi va ustav jamg‘armalari miqdori oshirildi. Korxonalar barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan foydalanishni faollashtirish, yangi korxonalarni tashkil etishni tezlashtirish, tadbirkorlik muhitiga o‘zaro yordamni kengaytirish asosiy maqsadlar qilib belgilab olindi. Iqtisodiyot, savdo va sanoat Vazirligi kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish strategiyasi uchun mas’ul bo‘lgan oliy davlat idorasi etib belgilandi. Unda “kichik va o‘rta biznesga nisbatan

siyosat bo'yicha Kengash" tashkil etildi va 2001-yilda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha davlat tuzilmalari ishini muvofiqlashtrishni yaxshilash maqsadida iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirlgi tarkibida "kichik va o'rta tadbirkorlik agentligi" tashkil etildi. 2000-yildan boshlab davlat tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotda davom etayotgan pasayishni sekinlashtirishga, korxonalar sonini kamaytirishga (yiliga 2% gacha) shuningdek, kichik va o'rta biznes setorining biznes faolligini kamaytirishga qaratilgan. 2002-yilning o'rtalarida Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdi (5-chizma).

**Yaponiyaning kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi maqsadlari**

Moslashuvchan iqtisodiy boshqaruv tizimini joriy qilish;
innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;

Iqtisodiy xavfsizlik tizimi barqarorligini ta'minlash va rivojlantirish;
sektorda ish sharoitlari va ijtimoiy ta'minotni mustahkamlash;

Tugallanmagan kreditlar bo'yicha qarzlarni bekor qilish;
xizmat ko'rsatish sohasida mehnat resurslar mobilligini oshirish;

Moliyaviy resurslar va aksionerlik kapitalidan foydalanishin osonlashtirish;
qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tuzilmalari o'zaro hamkorligini oshirish.

5-chizma: Yaponiyaning kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi

Davlat siyosati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish va uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashning eng dinamik vositasi sifatida kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish uchun dunyodagi eng yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Yaponiyada kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan 30 dan ortiq davlat dasturlari amal qiladi. Ular axborot, ta'lim, maslahat dasturlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari, innovatsion dasturlar va shartnomalar tuzish bo'yicha yordam dasturlaridan iborat.

Tadbirkorlik tashkilotlari hukumat uchun iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadigan Savdo Vazirligi huzuridagi jamoat idoralari va mustaqil ekspertlar guruhlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Axborot markazlari tarmog'i muayyan yo'nalishga ixtisoslashgan va mintaqaviy bo'limlar, hamkor tashkilotlar va mintaqaviy rivojlanish agentliklari bilan bog'langan. Yaponiyada 47 ta ayollar tadbirkorlik markazlari va 51 ta milliy ozchilikni tashkil etuvchilar markazlari faoliyat yuritadi.

Yirik shaharlar, portlar va sanoat markazlarida eksportni qo'llab-quvvatlovchi 60 ga yaqin agentliklar joylashgan. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash 500 ga yaqin klasterlar, biznes inkubatorlar, texnoparklar tomonidan amalga oshiriladi. 10 dan ortiq vakolatli kredit tashkilotlari yirik shaharlar, sanoat va qishloq xo'jaligi markazlarida o'z bo'limlariga ega. Tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari axborot va texnik yordam ko'rsatish, o'qitish va maslahat berish orqali yagona darcha tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatadi.

Kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yaponiya tajribasi e'tiborga loyiq. Bizga ma'lumki kichik tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarishda yangi tovarlar yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi masalalari moliyalashtirish uchun iqtisodiy imkoniyati yetarli emas, shuningdek, shu sababli boshqaruvda ishtirok etadigan xodimlar soni ham cheklangan bo'ladi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida Yaponiya hukumati tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarining universitet va boshqa ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Shuningdek, tashkil etilgan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari mutaxassislari barcha kichik korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish, undagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish bo'yicha bepul maslahat beradilar [15].

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Yuqorida kichik tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasini tahlil qilish bizga mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy tajribani quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi:

Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi xorij tajribasini mamlakatimizda joriy etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- tadbirkorlik manfaatlarini himoya qiladigan boshqa idoralarga to'be bo'lmagan mustaqil idorani yaratish;
- yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarini birinchi ikki yilda foyda solig'idan to'liq, keyingi ikki yilda 50%gacha, 5- yildan boshlab to'liq to'lash tartibiga o'tish;
- innovatsion ishlanmalar va loyihalar bilan band bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlashga yo'naltirilgan mahalliy banklar tizimini yaratish;
- amaldagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar, qo'llab-quvvatlash choralari, davlat buyurtmasi va boshqalar to'g'risidagi muntazam yangilanib boradigan axborotni o'z ichiga olgan va onlayn maslahatlarni ko'zda tutuvchi kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning global internet axborot tarmog'i faoliyatini tashkil etish.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muammoli mavzulardan biri hisoblanadi. Ko'pgina tijorat banklari kichik tadbirkorlik subyektlariga ishonchsizlik bilan qarashadi. O'z-o'zini tiklab olmoqchi bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlari uchun ajratiladigan kreditlar foiz stavkasi deyarli yuqori. Bundan tashqari olinadigan kredit uchun garov talab etiladi, ko'pchilik tadbirkorlik subyektlari garovni ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Yuqorida keltirilgan Xitoy va Germaniya tajribasiga suyangan holda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini muayyan mezonlar bo'yicha baholab, ularga maqsadli kreditlar ajratadigan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi ixtisoslashtirilgan davlat banklarini tashkil etish zarur.

Mamlakatimizdagi kichik tadbirkorlik subyektlari orasida ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi hali keng tarqalmagan.

Davlat idoralarining kichik tadbirkorlik subyektlari bilan aloqalarini yaxshilash, ularning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish va o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradigan ixtisoslashtirilgan davlat infratuzilmasini yaratish mazkur holatning o'zgarishiga muhim turtki bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kichik tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy tajribani uyg'unlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini shakllantirish, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlar siyosatida kichik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalar yordamida mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va boshqa tomondan, ushbu siyosatni tabaqalashtirilgan yondashuvga moslashtirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Нестеренко Ю.Н. Малый инновационный бизнес: новые подходы к эффективному развитию. Монография. –М.: МПА-Пресс, 2010:. С.44.
2. Кияйкин П. Н. Зарубежный опыт в развитии малого и среднего предпринимательства.URL:http://sisupr.mrsu.ru/2011-1/PDF/Kiyaikin.pdf
3. Уильямсон О.И. Экономические институты капитализма: фирмы, рынки, "отношенческая" контрактация. СПб.:Лениздат: CEV Press, 2016.С. 690.
4. Единый реестр субъектов малого и среднего предпринимательства - получателей поддержки. [Электронный ресурс]. – URL: https://rmsp-pp.nalog.ru/index.html/ (дата обращения: 10.10.2023).
5. Идеи малого бизнеса: кредитование малого бизнеса [Электронный ресурс]. – URL: - http://www.kreditbusiness.ru/russianbusiness/2022-programma-podderzhki-malogo-biznesa-2022.html/ (дата обращения: 10.10.2023).
6. Зубова О.Г. Зарубежный опыт государственной поддержки малого и среднего предпринимательства / О.Г. Зубова – Вестник УРАО. 2020. №3. – С.43.
7. Версоцкий Р.Р. Зарубежный опыт поддержки малого и среднего предпринимательства и возможности его применения в современной России /Р.Р. Версоцкий // Управленческое консультирование. 2019. №7 (127). – С.100.
8. Кудратов З.Г. Опыт поддержки малого и среднего бизнеса в некоторых развитых странах / З.Г. Кудратов, Б.Б. Тошбоев, Г.И. Бердиев // Молодой ученый. – 2019. – №1 (81). – С. 242-245.
9. Зарубежный опыт государственной поддержки инновационных малых и среднихпредприятий.URL:http://kfpp.ru/analytics/material/innovation.php
10. Клочкова Н. В. Развитие инновационной активности в России // Наука и Экономика. 2010. № 4. С. 11-14.
11. Зарубежный опыт государственной поддержки инновационных малых и средних предприятий. URL: http://kfpp.ru/analytics/material/innovation.php
12. Sergienko N. S. State support for small and medium-sized businesses in the context of the coronavirus pandemic: the experience of developed countries, Journal of Economy and entrepreneurship, 2020, no. 5 (118), pp. 752-755.
13. Гринберг Р. С. Государственная поддержка малого предпринимательства в странах Центральной и Восточной Европы. М., Наука. 2006.
14. Зарубежный опыт государственной поддержки инновационных малых и среднихпредприятий.URL:http://kfpp.ru/analytics/material/innovation.php
15. Business support in the context of a pandemic: proposals of the business community, GARANT.RU. Available at: http://www. garant.ru/news/ 1345144/ (accessed 02.12.2020).

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.